


I. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 13 187,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi 119,0 foizni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida 2 927,3 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020- yil yanvar-sentabrga nisbatan 106,8 foizni tashkil etdi. Jumladan, 1 808,3 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 1 119,0 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2020- yil yanvar-sentabrga nisbatan mos ravishda 103,5 foiz va 112,7 foiz) ishlab chiqarildi.

Yanvar-sentabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, (mlrd. so'mda)



Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati



Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8 536,4 mlrd. soʻmni oʻsish surʻati 115,5 % ni tashkil etdi.

Oʻz navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan ichimlik ishlab chiqarish 92,3 %ni, kiyim kechak ishlab chiqarish 95,4 %ni, toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa 146,8 %ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Iqtisodiy tarmoqlar kesimida oʻrganilganda, joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 1 422,0 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi va oʻtgan yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʻati indeksi 90,9 % ni tashkil etdi.

Togʻ-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan oʻsish surʻati indeksi tabiiy gaz 57,5 % ni, neft 94,0 %ni, kondensat qazib olish hajmi 93,2 %ni va boshqa togʻ-kon sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi oʻsish surʻati 90,5 %ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 3 124,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining 23,7 %ni) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini mahsulotlari o‘shish sur‘ati indeksi o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 167,8 %ni tashkil etgan.

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.



Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 105,2 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 %ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda 2021- yil yanvar-sentabr oylarida suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 109,6 %ni tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati indeksi, foiz hisobida</i>
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	13 187,8	119,0
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1 422,0	90,9
<i>ulardan:</i>		
Xom neft va tabiiy gaz qazib olish	633,7	76,2
Qayta ishlash sanoati	8 536,4	115,5
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1 930,8	98,0
Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish	70,8	92,3
To'qimachilik buyumlari	2 872,4	146,8
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	2 817,5	108,4
Mebel ishlab chiqarish	58,3	114,0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	250,1	120,3
Metallurgiya sanoati	53,7	172,6
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	3 124,2	167,8
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	105,2	109,6
Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish	2 927,3	106,8
<i>shu jumladan</i>		
Oziq-ovqat tovarlari	1 808,3	103,5
Nooziq-ovqat tovarlari	1 119,0	112,7



Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e‘tiborida bo‘lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta‘minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalarini tomonidan joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 13 187,8 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki o‘shish sur‘ati indeksi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 119,0 % ni tashkil etdi, shuning bilan birga davlat sektorida 6 567,6 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib umumiy hajmga nisbatan 48,8 %ni tashkil etsada, nodavlat sektorida 6 620,2 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 51,2 %ni tashkil etdi.

Davlat va nodavlat sektorlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish,%da




Sanoat sohasida modernizatsiyalash ko‘lamlarini jadallashtirish va kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davom ettirildi.

Tarmoq korxonalari tomonidan joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 13 187,8 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki oʻtgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi 119,0 %ni tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi quyidagicha tavsiflanadi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim omili boʻlib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari faoliyati oʻsish surʼati 90,9 %ni, qayta ishlash sanoati 115,5 %ni, elektr energiyasi, gaz, bugʻ va konditsiyalangan havo 167,8 %ni, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yigʻish va qayta foydalanish boʻyicha xizmatlar 109,6 %ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi

(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



- **Togʻ-kon sanoati**
- **Qayta ishlaydigan sanoat**
- **Elektr energiyasi, gaz, bugʻ va konditsiyalangan havo**
- **Su taʼminoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yigʻish va qayta ishlash**

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish hajmi (yirik korxonalar boʻyicha)

	Oʻlchov birligi	2021- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabrga nisbatan %da
--	-----------------	--------------------------	---

Togʻ- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tabiiy gaz	mln. m ³	1 067,6	57,5
------------	---------------------	---------	------


	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2020- yil yanvar-sentabrga nisbatan %da</i>
Neft	<i>ming tn.</i>	20,2	94,0
Suyultirilgan gaz	<i>ming tn.</i>	105,3	95,5
Kondensat	<i>ming tn.</i>	116,1	93,2
Ishlab chiqaradigan sanoat			
Un	<i>tn.</i>	109 574,4	95,4
Non mahsulotlari	<i>tn.</i>	362,9	46,7
Omuxta yem	<i>tn.</i>	59 203,0	96,1
Tozalangan o'simlik moyi	<i>tn.</i>	2 013,0	31,1
Makaron mahsulotlari	<i>tn.</i>	47,0	7,6
Aroq va likyor mahsulotlari	<i>ming l.</i>	1 652,2	75,1
Vino mahsulotlari	<i>ming l.</i>	491,1	70,1
Kalava ip	<i>tn.</i>	23 700,4	117,6
Oltinugurt	<i>ming tn.</i>	0,8	100,0
Lint	<i>tn.</i>	3 939,0	209,5
Paxta tolasi	<i>tn.</i>	51 673,0	162,1
Paxta chigiti	<i>tn.</i>	78 494,0	171,0
Shrot va sheluxa	<i>tn.</i>	9 670,0	31,4

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2020- yil yanvar-sentabrga nisbatan %da</i>
Xo'jalik sovuni	<i>tn.</i>	315,0	3,0 m
Kaliy o'g'iti	<i>ming tn.</i>	141,8	95,3
Termoplast quvurlari	<i>tn.</i>	3 140,0	90,1
Polietilen	<i>tn.</i>	104 520,0	102,6
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	2 306,7	98,1

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish

Qashqadaryo viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon tumani (Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmining 25,1 %), G'uzor tumani (20,1 %), Qarshi shahar (15,2 %), Kasbi tumani (6,1 %), Qarshi tumani (5,9 %) hissasiga to'g'ri keladi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib Qashqadaryo viloyati va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o‘sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 13 187,8 mlrd. so‘mni tashkil etib, viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 3 922,5 ming so‘mni yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati indeksi 116,8 %ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek viloyatda iste‘mol tovarlari ishlab chiqarilishi aholi jon boshiga 870,7 ming so‘mni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 104,8 %ga yetdi.

Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag‘batlantirish va turlarini kengaytirish, iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 4,1 % ga oshishiga olib keldi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 22,2 % ni tashkil etdi.


Iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da



Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1 743,5 mlrd. so‘mga yetkazilib, jami iste‘mol tovarlaridagi ulushi 59,6 %ni, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1119,0 mlrd. so‘m,

jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 38,2 %ni, alkohol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi esa 64,8 mlrd. so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 2,2 %ni tashkil etdi.


Hududlarda iste'mol tovarlarining ulushi, % da



Hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi eng yuqori ulushga ega bo'lgan Qarshi shahar (25,3 %), Chiroqchi tumani (13,9 %) tashkil etadi. Shu bilan birga eng kam ulushga ega bo'lgan Muborak (2,0 %), Kasbi (1,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarining fizik hajm indeksi, % da


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan)



Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishda eng yuqori o'sish sur'atlari Kasbi tumani (174,1 %), Nishon tumani (154,8 %) kuzatilmoqda.

Hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarining o'sish sur'atlari, % da

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan)




Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish sur'atlari Dehqonobod tumani (129,9 %), Chiroqchi tumani (117,4 %), Muborak tumani (117,2 %), Qamashi tumani (115,8 %), Kitob tumani (115,4 %), Shahrisabz shahri (111,6 %) kuzatilgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda bir maromdagi o'sish kuzatildi. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 24,7 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida tumanlar kesimida kichik biznesning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Kitob (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 98,2 %), Chiroqchi (86,7 %) va Yakkabog' (81,0 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Kasbi (7,1 %), G'uzor (5,0 %), Nishon (4,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, (ming so'mda)



Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi eng yuqori ko‘rsatkich Nishon tumaniga (21 126,3 ming so‘m), G‘uzor tumaniga (12 655,9 ming so‘m), Qarshi shahri (7 166,7 ming so‘m)ga to‘g‘ri keldi. Eng past ko‘rsatkich esa Qamashi tumani (1 117,3 ming so‘m), Kitob tumani (827,8 ming so‘m) ga to‘g‘ri keldi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan iste‘mol tovarlarining hajmi, (ming so‘mda)



Hududlar kesimida iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi eng yuqori ko‘rsatkich Qarshi shahri (2 641,8 ming so‘m), Shahrisabz shahri (1 514,4 ming so‘m), Shahrisabz tumani (969,1 ming so‘m), Chiroqchi tumani (960,6 ming so‘m) ga to‘g‘ri keladi. Eng past ko‘rsatkich esa G‘uzor tumani (338,3 ming so‘m), Kasbi tumani (282,0 ming so‘m)ga to‘g‘ri keladi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 105 ta loyiha bo‘yicha 770,5 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.


**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**
(yanvar-sentabr oylarida)

	2020- yil	2021- yil
Loyihalar soni, birlik	43	105
Korxonalar soni, birlik	37	49
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	59,2	770,5
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh doll.	-	4,6
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	86	106

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 820,1 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 112,4 foizni tashkil etdi. O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 15,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 13,8 foizni tashkil etgan holda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,4 foizga kamaygan.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 817 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 897 tasi Qarshi shahri va 525 tasi Kitob, 445 tasi Yakkabog', 373 tasi Shahrisabz shahar, 429 tasi Chiroqchi, 344 tasi Qarshi, 235 tasi Qamashi, 241 tasi Koson, 260 tasi Shahrisabz, 287 tasi G'uzor, 167 tasi Nishon, 237 tasi Kasbi va 142 tasi Mirishkor tumanlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik *(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)*



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 1 191 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 17,2 foizi Qarshi shahriga, 8,3 foizi Kasbi, 8,6 foizi G'uzor, 7,1 foizi Qarshi, 9,0 foizi Yakkabog', 4,3 foizi Qamashi, 7,2 foizi Kitob, 6,4 foizi Shahrisabz shahar, 9,8 foizi Chiroqchi, 4,0 foizi Mirishkor, 3,8 foizi Koson, 2,6 foizi Muborak, 5,6 foizi Shahrisabz, 3,1 foizi Nishon hamda 2,9 foizi Dehqonobod tumanlariga to'g'ri keladi.